

### XIII. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

#### Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 3 639,3 ming kishini tashkil etib, 2024- yil boshidan 78,7 ming kishiga ya'ni 2,2 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1 553,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,7 %), qishloq aholisi soni 2 086,3 ming kishini (57,3 %) tashkil etdi.

#### E'tibor bering: 2024- yil yanvar-dekabr oylarida

- Aholi soni **78,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **100,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **15,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **29,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **3,0 ming nafarni** tashkil etdi

#### 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida

Yil boshida  
doimiy aholi soni  
**3 560 633 kishi**  
(2024- yil 1- yanvar holatiga)



**100,9** ming  
bola

Tug'ilganlar soni



**15,5** ming  
kishi

O'lganlar soni



**11,1** ming  
kishi

Ko'chib kelganlar  
soni



**17,8** ming  
kishi

Ko'chib ketganlar  
soni

Doimiy aholi soni  
**3 639 318 kishi**  
(2025- yilning 1- yanvar holatiga)

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni<sup>1)</sup>**  
(2025- yilning 1- yanvar holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3 639,3</b>	<b>1 553,0</b>	<b>2 086,3</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	300,8	300,8	0,0
Shahrisabz sh.	150,1	150,1	0,0
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	227,0	53,4	173,6
Dehqonobod	162,7	30,9	131,8
Qamashi	299,8	71,0	228,8
Qarshi	279,5	101,2	178,3
Koson	319,4	167,6	151,8
Kitob	287,7	106,7	181,0
Mirishkor	132,3	49,7	82,6
Muborak	95,2	75,6	19,6
Nishon	170,6	101,6	69,0
Kasbi	217,8	84,2	133,6
Ko'kdala	194,4	30,3	164,1
Chiroqchi	274,5	78,5	196,0
Shahrisabz	239,2	57,5	181,7
Yakkabog'	288,3	93,9	194,4

<sup>1)</sup> dastlabki ma'lumot

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni**  
(1- yanvar holatiga ming kishi)

	2024- y.	2025- y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3 560,6</b>	<b>3 639,3</b>	<b>102,2</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	295,6	300,8	101,8
Shahrisabz sh.	147,2	150,1	102,0
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	222,2	227,0	102,2
Dehqonobod	159,5	162,7	102,0
Qamashi	293,1	299,8	102,3
Qarshi	272,1	279,5	102,7
Koson	312,1	319,4	102,3
Kitob	282,0	287,7	102,0
Mirishkor	129,6	132,3	102,1
Muborak	93,4	95,2	101,9
Nishon	166,6	170,6	102,4
Kasbi	213,0	217,8	102,3
Ko'kdala	188,7	194,4	103,0
Chiroqchi	267,9	274,5	102,5
Shahrisabz	235,1	239,2	101,7
Yakkabog'	282,5	288,3	102,1


## Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy harakati

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishiga nisbatan promille</i>	
	<i>2023- y.</i>	<i>2024- y.<sup>1)</sup></i>	<i>o‘shish, kamayish</i>	<i>2023- y.</i>	<i>2024- y.<sup>2)</sup></i>
Tug‘ilganlar	101 852	100 909	-943	28,9	28,0
O‘lganlar	16 424	15 514	-910	4,7	4,3
Tabiiy o‘shish	85 428	85 395	-33	24,2	23,7
Nikohlar	30 908	29 256	-1 652	8,8	8,1
Ajralishlar	3 376	2 989	-387	1,0	0,8

**Tug‘ilish darajasi.** 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 100 909 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (101 852 kishi) nisbatan 943 kishiga kamaydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 28,0 promilleni tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (28,9 promille) nisbatan 0,9 promillega kamaydi.

### Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-dekabr oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Muborak tumanida 25,4 dan 26,8 promillega va Qamashi tumanida 30,1 dan 30,2 promillega ko‘payishi kuzatilgan.

<sup>1)</sup> dastlabki ma'lumot


<sup>2)</sup> dastlabki ma'lumot

Tug‘ilish. 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 100,9 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 28,0 promilleni tashkil etdi hamda 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega kamayganligi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 28,9 promille bo‘lgan) kuzatildi.

### Ma'lumot uchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning bo‘yi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq bo‘lishi lozim.

### Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida)




**O‘lim darajasi.** 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 15 514 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (16 424 kishi) nisbatan 910 kishiga yoki 94,5 foizga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,3 promilleni tashkil qildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,7 promille).

**2024- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy o‘lim sabablari  
bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**  
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



**O‘lim soni va koeffitsientlari**




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Qarshi shahrida (4,7 dan 5,4 promillega), Yakkabog ‘da (4,4 dan 4,4 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

**Nikoh.** 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 29,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,1 promilleni tashkil etdi.



### Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti

(2024- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)



**Nikohdan ajralishlar.** 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,8 promilleni tashkil etdi.

### Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti

(2024- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga)



**Nikohlar va ajralishlar.** 2024- yilning yanvar-dekabr oylari FHDYO organlarida 29 256 ta nikohlar va 2 989 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 8,1 ta nikoh (2023- yilning tegishli davrida 8,8 ta) va 0,8 ta ajralishlar (2023- yilning tegishli davrida 1,0 ta) to'g'ri kelgan.

### **Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni**

(yanvar-dekabr oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023- y.</i>	<i>2024- y.</i>	<i>2023- y.</i>	<i>2024- y.</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>30 908</b>	<b>29 256</b>	<b>3 376</b>	<b>2 989</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	2 354	2 130	451	359
Shahrisabz sh.	1 029	982	253	206
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	2 042	1 901	162	178
Dehqonobod	1 395	1 416	131	117
Qamashi	2 652	2 516	237	242
Qarshi	2 389	2 268	275	210
Koson	2 873	2 683	176	176
Kitob	2 409	2 144	289	287
Mirishkor	1 064	1 097	92	67
Muborak	839	774	86	83
Nishon	1 552	1 444	183	132
Kasbi	2 029	1 861	156	139
Ko'kdala	1 739	1 766	83	79
Chiroqchi	2 347	2 315	217	241
Shahrisabz	1 901	1 782	244	222
Yakkabog'	2 294	2 177	341	251

**Migratsiya<sup>1</sup> (Ichki va tashqi).** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 11 109 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 17 819 kishini tashkil qilgan.

### Aholi migratsiyasi (kishi)


		2023- yilning yanvar-dekabr oylarida	2024- yilning yanvar-dekabr oylarida
	Ko'chib kelganlar	9 150	11 109
	Ko'chib ketganlar	16 263	17 819
	Migratsiya saldosı	-7 113	-6 710

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida migratsiya qoldig'i minus 6 710 kishiga (2023- yilning shu davrida minus 7 113 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Qamashi (minus 979), Kitob (minus 962) va Yakkabog' (minus 856) tumanlarida kuzatilgan.


### Yanvar-dekabr oylarida

Soni, ming kishi

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



<sup>1</sup> shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda  
<sup>2</sup> dastlabki ma'lumot



## Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2025- yil 1- yanvar holatiga 3 00,8 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 2,6 ming kishiga yoki 0,9 % ga o'sgan.

### Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

(1 000 aholiga nisbatan promille)



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 7,3 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 24,6 promilleni tashkil etdi (2023- yilning mos davrida 26,4 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2024- yilning yanvar- dekabr oylarida 2130 ta nikoh va 359 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,1 promilleni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan kamaygan. (2023- yilning mos davrida 8,1 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 1,2 promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan teng. 2023- yilning mos davrida 1,5 promille bo'lgan.

### Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-dekabr holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

